Materiallar to'plami · Conference Proceedings
**"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**
04 August 2026
UDK 91
**TABIIY FANLAR**

# LANDSHAFT KOMPONENTLARI VA AHOLI JOYLANISHI O'RTASIDAGI HUDUDIY BOG'LIQLIK

Muzaffarjon Muzrob o'g'li Sahrobov*, Shaxbozbek Qaxramon o'g'li Qarshiyev
*Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*
✉ muzaffarjon@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada* tabiiy landshaft komponentlarining aholi joylanishiga ta'siri iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan. *Tadqiqotda landshaftshunoslikning* nazariy asoslari, geografik determinizm va landshaftli yondashuv tamoyillari, shuningdek, geomorfologik, gidrologik, tuproq va iqlim omillarining aholi hamda xo'jalikning hududiy joylanishidagi o'rni yoritilgan. Farg'ona vodiysi misolida tabiiy landshaftlarning tarixiy o'zlashtirilish jarayonlari va aholi zichligining hududiy tafovutlari tahlil qilinib, landshaft komponentlari bilan aholi joylanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asoslab berilgan. *Tadqiqot natijasida* landshaftli yondashuvning aholi joylanishini baholash, hududlardan oqilona foydalanish va barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi metodologik ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**

aholi joylanishi, landshaft, landshaft komponentlari, landshaftli yondashuv, geomorfologik omil, gidrologik omil, tuproq unumdorligi, tabiiy geografik muhit, geotizim, antropogen bosim, Farg'ona vodiysi, hududiy rivojlanish.

DOI: 10.5281/zenodo.21835610

**Kirish.** Aholining hududiy joylanishi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim geografik jarayonlardan biri bo'lib, u tabiiy muhit, resurs salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab aholi yashash maskanlarining vujudga kelishi, xo'jalik faoliyatining hududiy tashkil etilishi hamda manzilgohlar tizimining rivojlanishi tabiiy landshaftlarning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu sababli aholi joylanishini ilmiy jihatdan izohlashda landshaft komponentlarining o'rni geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Geografiya fanida landshaft tabiiy geografik tizimning eng muhim birligi sifatida e'tirof etilib, uning geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, tuprog'i, suv resurslari va biologik komponentlari hududning o'zlashtirilish darajasi hamda aholi zichligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy landshaftshunoslik tabiiy komponentlarni alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan geotizim sifatida o'rganadi. Shu bois aholi joylanishini baholashda ham landshaftli yondashuv hududning tabiiy salohiyati, ekologik imkoniyatlari va antropogen o'zgarishlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda urbanizatsiya, sanoatlashuv va qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi natijasida tabiiy landshaftlarning antropogen o'zgarish darajasi ortib bormoqda. Bu esa aholi joylanishi va tabiatdan foydalanish o'rtasidagi muvozanatni ilmiy asosda baholash zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik ustun bo'lgan Farg'ona vodiysi kabi hududlarda geomorfologik tuzilish, gidrologik tarmoq, tuproq unumdorligi va iqlim sharoitlarining aholi joylanishiga ta'sirini aniqlash hududiy rejalashtirish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tabiiy landshaft komponentlarining aholi joylanishidagi rolini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, landshaftli yondashuvning metodologik asoslarini ochib berish hamda Farg'ona

vodiysi misolida tabiiy geografik omillarning hududiy aholi taqsimotiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari hududlarning ekologik sig‘imini baholash, aholi joylashuvining tabiiy qonuniyatlarini aniqlash va barqaror hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Natija va muhokama.** Aholining hududiy joylashishi yer yuzasining kishilar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, juda uzoq vaqt davom etadigan tarixiy jarayondir. Aholining hududiy joylashishi bilan uning tabiatdan foydalanish ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita, uzviy aloqadorlik mavjud. Aholining ma’lum mintaqada zich yoki siyrak joylashuviga tabiiy omilning ta’siri uzoq davom etadigan tarixiy jarayon natijasidir. Xususan, aholi zich hududlarda tabiatning asosiy ne’matlarini yuqori iqtisodiy salohiyati borligini kuzatish mumkin. Aholining joylanishi hududning o‘zlashtirilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Hududning o‘zlashtirilishi haqida fanda ikki xil dunyoqarash shakllangan. Uning birinchisi D.Rikardoga tegishlidir. U insoniyat doimo eng yaxshi unumdorlikka ega bo‘lgan, qulay joylashgan hududlarni (landshaftlarni) birinchi bo‘lib o‘zlashtirgan deya ta’kidlaydi. Hududning o‘zlashtirilishi bo‘yicha ikkinchi fikr birinchisiga teskari bo‘lib, uning muallifi amerikalik iqtisodchi G.Ch.Keridir. U insoniyat dastlab unumdorligi kamroq bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirib, keyinchalik unumdor tuproqlarga o‘tgan deb aytadi. Bunga sabab sifatida insonni tabiatga ta’sir etishdagi imkoniyati dastlabki davrlarda cheklangan bo‘lishi deb ko‘rsatadi. Unumdor hududlar o‘rmon yoki qalin chakalakzorlar bilan qoplangan bo‘lib, uni o‘zlashtirishga, o‘rmonni kesishga insonning imkoniyati yetmaganligi, shuning uchun u dastlab unumsizroq tuproqlarni, so‘ngra ish qurolini takomillashtirib, unumdorroq hududlarni o‘zlashtirishga o‘tgan [2]. Bu ikki bir-biriga qarama-qarshi bo‘lib ko‘ringan g‘oyalarning har ikkisi o‘z davri uchun to‘g‘ri ekanligini Farg‘ona vodiysida aholining joylanishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘rish mumkin [1]. Vodiydagi dastlabki aholi maskanlari landshaftning yuqori pog‘onalarida adirlar va tog‘ oraliq botiqlarida shakllangan. Mehnat qurollarining takomillashi esa aholining quyiga qarab o‘zlashtirishni amalga oshirishiga olib keldi. So‘x, Oxna, Qizilqiya, Quva, Ershi, O‘sh, Koson, Chust kabi hududlarning adirlari va tog‘ oraliq botiqlarida shakllangan aholi maskanlaridan keyinchalik daryo vodiylariga qarab o‘zlashtirish shakllandi.

Quruqlikni inson yashaydigan qismining turli tumanligi avvalo tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, undagi keskin o‘zgarishlar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida yuzaga keladi. Tabiiy xususiyatlarning turlichaligi dastlabki omil sifatida uni inson tomonidan o‘zlashtirishiga sharoit yaratadi. Tabiiy geografik muhitning o‘zlashtirilishi avvalo tabiiy resurslarning qay darajada (oz yoki ko‘p) ekanligidan yuzaga keladi. Tabiiy resurslarning to‘la, mukammal bo‘lishi shu hudud o‘zlashtirilishini kuchayishiga, aholi sonining toboro ortishiga olib keladi. Natijada tabiiy geografik muhitni o‘zlashtirishi oqibatida jamiyat atrof-muhitni unga begona unsurlar bilan (aholi punktlari, transport yo‘llari, qishloq xo‘jalik yerlari va hokazo) to‘ldirib boradi. Tabiiy muhitni o‘zgarishi bilan unga tushadigan antropogen bosim ham kuchayib boradi. Bugungi kunda atrof tabiiy-muhit deyarli to‘la o‘zgarishga uchragan bo‘lsa-da, jamiyat uni toboro yot elementlar bilan boyitishda davom etadi.

Tabiatdan foydalanishni tashkil qilish va boshqaruv sohasidagi qarorlarining qabul qilinishi ko‘pincha ijtimoiy-iqtisodiy omillar shakllangan ma’muriy chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Hududning tabiiy (landshaft) xususiyatlari esa nazardan chetda qoladi. Mintaqalarning qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va (hosildorlik, yalpi mahsulot olish va hokazo) yuqori hosil olish maqsadida ekin maydonlarining tuproq unumdorligi, namligi, qurg‘oqchililligi ko‘pincha e’tiborga olinmaydi.

Tarixiy davrlarda inson va tabiat munosabatlarining xususiyati ko‘pincha ijtimoiy tuzum bilan bog‘lab olib borilgan. Kapitalistik munosabatlar negativ (salbiy) nuqtai-nazaridan tasvirlanadi va qator ekologik muammolarning bosh sababchisi sifatida ko‘rsatiladi. Ammo jamiyatning shakllanishida, uning hayotida asosiy geografik omil - tabiiy sharoit muhim ahamiyat kasb etadi. Geografik omil – inson moddiy hayotining asosiy sharti, u bilvosita, moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuli orqali, ijtimoiy tuzumning xususiyatiga (xarakteriga) ta’sir etadi [6].

Dastlabki tabiiy geografik bilimlar ijtimoiy geografiyadan ko‘ra oldinroq vujudga kelgan, chunki tabiat jamiyat shakllanishidan avvalroq ham mavjud edi. Tabiiy geografiyaning evolyutsion taraqqiyotida landshaftshunoslik katta ahamiyat kasb etgan va u ushbu fanning markazidan joy olgan. Zero landshaft barcha tabiiy geografik jarayonlarni, ularning natijalari o‘zida mujassamlashtiradi [11; 5-b.]. Shuning uchun geografiyaning eng fundamental fanlari qatorida landshaftshunoslik muhim o‘rin egalaydi. Bu fanda eng keng qo‘llaniladigan

terminlar qatoriga landshaft tushunchasi kiritiladi. U nemis tilidan tarjima qilinganda «land» – «yer», «schaft» - «manzara» ma'nosini beradi. Bu termindagi «schaft» suffiksi «o'zaro aloqa» va «o'zaro bog'liqlik» tushunchasini ifodalaydi. Landshaftga berilgan ta'riflar ko'p bo'lib, ular orasida Ye.Y.Kolbovskiy tomonidan berilgan ta'rif diqqatga sazovordir. Unga ko'ra landshaft - Yer yuzasining geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik, hayvonot dunyosi va gidrologik rejimi deyarli bir xil bo'lgan alohida qismi bo'lib, yuqoridagi komponentlarning uyg'unligi va o'zaro aloqadorligining mavjudligi bilan ajralib turadi [8; 6-b.].

Fanda landshaft terminining muallifi Aleyeksandr Gumboldt u haqida «atrof-muhitning ko'zga ko'ringan va estetik zavqli qismidir» deb atagan bo'lsa, bu termin dastlab, siyosatshunoslikda, san'atda, arxitekturada keng ishlatilgan, keyinroq esa Yer haqidagi fanlarga, jumladan, geografiyaga kirib kelgan. Bundan tashqari landshaftni siyosatshunoslikda, kundalik turmushda, sanoatda, fotografiyada, boshqaruvda qo'llanish usullari haqida batafsil adabiyotlar sharhi V.N.Kolutskov (2009) tomonidan berilgan [9; 18-b.].

Landshaft tushunchasi qaysi ma'noda qo'llanmasin u mohiyatan tabiiy geografik qonuniyatlarning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlash lozim. Keyingi paytlarda tabiiy geografik qonuniyatlarga to'la mos bo'lmagan, o'zidan iqtisodiy geografik mazmun beruvchi «madaniy landshaftlar», «qishloq ho'jalik landshaftlari», «shahar landshaftlari» kabi terminlar paydo bo'ldi-ki, bu jihatdan lanshaftlarni tadqiq etish yanada dolzarblashdi. Shu maqsadda landshaftlarini geografik ahamiyatiga ko'ra tabiiy (geografik), antropogen, madaniy va texnogen turlari ajratilmoqda.

Tabiiy geografiyada hududiy tizim, to'g'irog'i-geotizim yoki geosistema nazariyasining asoschisi V.B.Sochava bo'lgan (1963). U geosistemani tabiiy geografiya fanining obyekti sifatida qaragan va geosistema faqat mazkur fanga taalluqli, deb hisoblagan (iqtisodiy geografiyada esa, V.B.Sochavaning fikricha, hududiy ishlab chiqarish sistemalari mavjud). Demak, geografiya, landshaft, mintaqa kabi tushunchalar ko'proq an'anaviy holda tabiiy geografiya ma'nosida qo'llanishiga o'xshash geosistema ham shu mazmunga ega, vaholanki, ularning barchasi ayni vaqtda notabiiy geografiyaga ham tegishlidir. Ammo tabiiy va ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy) sistemalar o'rtasida ma'lum farqlar mavjud; notabiiy sistemalar ancha harakatchan bo'ladi va ularning boshqaruv imkoniyatlari ko'proq inson faoliyati bilan bog'liq [10]. Bu faoliyat jarayonida o'rganilayotgan geografik voqea-xodisaga landshaftlarning ta'siri yoki ushbu voqea-xodisaning landshaftlarga ta'siri o'rganilsa ko'proq landshaftli yondoshuv termini qo'llaniladi.

Y.I.Ahmadaliyev (2014) tasnifida landshaft birliklarining chegaralari ma'muriy-hududiy birliklar chegaralariga mos tushmasligi keltiriladi. Ushbu holat ajratilgan landshaft birliklarida yerdan foydalanish tartibi, uning o'zgarishi kabi statistik ma'lumotlardan foydalanish imkonini bermasligi, yerdan foydalanishning hududiy tabaqalanishini tahlil qilish, aniq tavsiyalar ishlab chiqish uchun iqtisodiy-geografik tasnif va rayonlashtirish o'tkazish zarurati muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu yerdan foydalanish unumdorligini tahlil qilishda iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkonini berishi bilan birga, fanning amaliyot bilan aloqasini kuchaytirishini bildiradi.

Landshaftning asosiy komponentlaridan hisoblagan geologik tuzilishi va relyefi xo'jalik va aholining joylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligi ma'lum. Jahonda xo'jalik va aholining joylashuv xaritasini taxlili etilsa, tog'lik o'lkalarda xo'jalik va aholining siyrak joylashishi ayon bo'ladi. Garchi hozirgi statistik hisobotlar landshaftning bu o'ziga xosligini hisobga olmay, ma'muriy chegaralar bo'yicha hisoblansada Yu.Ahmadaliyevning So'x tarixiy-geografik rayoni misolida olib borgan tadqiqotlarida bunday yondashuv joydagi asl manzarani aks ettirmasligi asoslab berilgan [2]. Biroq, bunday yondoshuvni asos qilib tog' landshaftlarini xo'jalikning joylashishi va rivojlanishiga har doim ham to'sqinlik qiladi deb hisoblash ham u qadar to'g'ri emas. Qishloq xo'jaligi yoki aholi maskanlarini tashkil etish uchun u qadar qulay bo'lmagan hududlar rekreatsiya va turizm, muhofaza etiladigan hududlar, turli yo'nalishdagi sihatgohlar tashkil etish uchun eng qulay ekanligi ma'lum. Bunday landshaftlardan iqtisodiy samara olish yo'llarini Toshkent viloyatini Bo'stonliq, Farg'ona viloyatining Farg'ona (Shohimardon) tumanlari misolida ko'rish mumkin.

Hududdagi aholining zichligini, hududning antropogen elementlar bilan bandligini va antropogen o'zgarganligini aniqlashda landshaft yondoshuvidan foydalanish Sh.Sharipov (2011) tomonidan Toshkent viloyati landshaftlari misolida taxlil etilgan bo'lib, aholi soni va zichligiga bevosita geotizimlardagi antropogen elementlar ta'siri mavjudligi isbotlangan hamda Toshkent viloyatining o'rta masshtabli kartasi ham ishlangan.

Shuningdek, landshaftlarning o‘zgarganlik indeksi va landshaftlarning o‘zgarganlik darajasi ishlab chiqilgan bo‘lib, har ikki usulda ham landshaftlarning o‘zgarganlik darajasi balandlik mintaqalanishiga bo‘ysungan holda tog‘larning suvayirg‘ichidan tekislik tomonga ortib borishi asoslangan. Landshaftlardagi aholi zichligini hisoblashda har bir landshaft turiga mos keluvchi hudud aholisining ma’lumotlari joylashtirilgan hamda har bir landshaftdagi aholi sonini uning maydoniga bo‘lish orqali landshaftning aholi zichligi ishlab chiqilgan [12].

Biroq, Farg‘ona vodiysida aholining hududiy joylashishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda vodiy aholisining hududiy joylashuvida gidrologik omil va sharoit ham muhim o‘rin egallashi ta’kidlanadi [4]. Aynan bu jihat bevosita sug‘orma dehqonchilikning taraqqiy etishi bilan ham bog‘liqdir [5; 13-b.]. Shu sababli Farg‘ona vodiysida aholi joylashuvida tabiiy-landshaft omilining eng muhim bo‘g‘ini vodiyda joylashgan daryo va soylarning gidrologik to‘ridir. Gidrologik omilning rolini aholi joylanishiga ta’sirini qoraqolpoq etnosi misolida R.Balliyeva tomonidan to‘liq ochib berilgan. Unga ko‘ra qoraqolpoq etnosi dastlab daryo deltasida (qayirida) o‘rnashgan. Keyinchalik etnosning ko‘payishi bilan ularning bir qismi dengiz bo‘yicha (Orol dengizi) joylasha boshlagan bo‘lsa, keyinroq boshqalari daryo bo‘ylab (Sirdaryo bo‘ylab), yuqori oqimga tomon harakatlangan [3].

Albatta landshaftning boshqa komponentlari ham yuqoridagi kabi aholi va xo‘jalikning joylashishiga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazadi. Bizning kontitental mintaqamizda gidrologik omilining rolini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi omillar aholi va xo‘jalikning mamlakat miqyosida joylashishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatsa mintaqaviy masshtabda o‘rganilganda tuproq omilining ta’siri ham sezilarli ekanligini ko‘rish mumkin. Farg‘ona vodiysida tuproqning agrar imkoniyatlari (bonitet bali) eng yuqori bo‘lgan tumanlarda aholi va xo‘jalikning joylashish ko‘rsatkichlari ham yuqori ekanligini statistik ma’lumotlardan bilish mumkin. Vodiydagi Asaka, Oltinko‘l, Izboskan, Toshloq, Uchko‘prik, Buvaydava Uchqo‘rg‘on kabi ma’muriy tumanlarda aholi va xo‘jalikning joylashish darajasi tuproqning bonitet baliga to‘g‘ri proporsional ekanligi fikrimizning isbotidir. Albatta, landshaftning har bir komponentini xo‘jalik va aholining joylashishiga ta’sirini chuqur ilmiy taxlil qilish orqali «yer sig‘imi» meyorini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu holatda hududlarni ijtimoiy-ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdagi geografiya fanini vazifalari yanada aniq namoyon bo‘ladi.

Landshaftshunoslikning yutuqlaridan faqat geografiyada emas, balki gumanitar tadqiqotlar sohasida ham keng foydalanish mumkin. A.G.Isachenko lanshaftli yondoshuv tamoyiliga katta ahamiyat beradi. U landshaftli yondoshuv geografik determinizm tamoyillari to‘la mos tushadi deb hisoblaydi hamda jamiyat hayotida geografik muhitning rolini landshaftli yondoshuv asosida o‘rganilayotgan hudud obyektiv baholash imkonini berishini va uni tadqiq etishning yangi imkoniyatlarini ochib berishini ta’kidlagan edi [5].

Inson va tabiatning bir-biriga ta’siri masalalarini yoritib berib, A.G.Isachenko uzoq vaqt muammo bir tomonlama xarakteriga ega bo‘lganini ko‘rsatib beradi: tadqiqotchilarni insoniyat taqdiriga tabiiy muhitining ta’siri qiziqtirgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan insonning tabiatga ta’sirining o‘sishi munosabati bilan urg‘u tabiiy muhit taqdirini aniqlashga surildi. Shu bilan bir vaqtda, u o‘zlashtirish va joylashuvning landshaft tip va tipchalari o‘rtasida aniq aloqasi mavjudligi haqida ham aytib o‘tgan edi.

Farg‘ona vodiysi landshaftlari uzoq yillar davomida mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan keng ko‘lamli intensiv o‘zgarishga uchradi. O‘zlashtirilgan yerlarning ulushi, qazilgan kanallar va suv omborlari buning isbotidir. Vodiy landshaftmintaqalari ajratilib, olingan natijalar aholi zichligi bilan birlashtirilsa, landshaftdagi aholi zichligininghududiy farqlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Natijada vodiyda aholi zichligi yuqori bo‘lgan landshaft hududlarini ajratib ko‘rsatish imkoniyati tug‘iladi.

Landshaftlarda aholining zichlashib borishiga landshaftning tabiiy omillaridan tashqari hududning sanoatlashuv jarayoni ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Farg‘ona shahri va uning atrofida aholining o‘ta zichlashib ketishiga landshaftning qulayligi emas, balki uning sanoatlashuv jarayoni faol kechgani ta’sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda aholining joylashuvida landshaft komponentlarining rolini tahlil qilish ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan. Aksariyat tadqiqotchilar aholi zichligini, ular to‘plangan hududlar bilan taqqoslab, maksimal aholi zichligi suvli hudud yoki daryo terassalariga to‘g‘ri kelishi, hamda daryo yoqasidan balandlik tomonga uzoqlashilgani sari zichlik pasayib borishini ta’kidlangan (Sh.Jumaxanov). Shuningdek,

aholi zichligini landshaftlarning ekologik potensiali bilan taqqoslash ham juda muhimdir. Aholi asosan ekologik potensiali yuqori bo‘lgan hududlarda to‘planadi. Bunday joylarda ko‘pchilik qadimgi shaharlar paydo bo‘lgan (Shohimardonsoy oqimida Marg‘ilon, So‘x daryosi oqimida Qo‘qon, Andijonsoy oqimida Andijon).

Tabiiy muhitning ekologik omillari tabiatdan foydalanishni vujudga kelishining ilk bosqichlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu vaqtda paydo bo‘layotgan xo‘jalik faoliyat markazlari ekologik potensiali yuqori bo‘lgan keyinchalik esa iqtisodiy omillarning roli kuchayib borgan. Iqtisodiy omillarning kuchayishida yana daryo omili yetakchi rol o‘ynagan, ya’ni, sanoatlashuvda eng muhim joylashuv omili ham suv hisoblangan.

Yuqoridagi landshaftli yondoshuvning nazariy jihatlarida aholining hududiy joylashishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ajratib olish imkoniyati yaratildi. Ularga geomorfologik, iqlim, tuproq va gidrlogik omillar kirishi yuqoridagi tadqiqotlarda asoslab berilgan.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi joylanishining hududiy xususiyatlari tabiiy landshaft komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, geomorfologik tuzilish, gidrologik sharoit, tuproq unumdorligi, iqlim va boshqa tabiiy omillar aholi zichligi hamda xo‘jalik faoliyatining hududiy tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Tarixiy taraqqiyot davomida tabiiy landshaftlarning o‘zlashtirilish darajasi mehnat vositalarining takomillashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan birga o‘zgarib borgan bo‘lsa-da, tabiiy geografik omillar bugungi kunda ham aholi joylanishining muhim determinanti bo‘lib qolmoqda.

Farg‘ona vodiysi misolida olib borilgan tahlillar landshaft komponentlarining ta'siri hududning tabiiy sharoitlariga qarab turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, daryo vodiylari, unumdor tuproqlar va qulay relyef sharoitiga ega hududlarda aholi zichligi yuqori bo‘lsa, tog‘ va adir landshaftlarida aholi siyrak joylashgan. Shu bilan birga, sanoatlashuv va urbanizatsiya kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ayrim hududlarda tabiiy qonuniyatlarni qisman o‘zgartirishi ham kuzatiladi.

Shu bois aholi joylanishini tadqiq etishda landshaftli yondashuvni geografik axborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash ma'lumotlari va zamonaviy fazoviy tahlil usullari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday integratsiyalashgan yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, antropogen bosimni baholash hamda hududlarning ekologik va ijtimoiy barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдувалиев Х.А. Ландшафтный подход к изучению природопользования // Институт управления и социально-экономического развития РФ, Электронное научно-практическоепериодическое издание «Экономика и социум» № 10 (65) 2019. – С. Б.3-6.
2. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – 340 б.
3. Баллиева Р. Этнокультурные особенности природопользования народов Приаралья (в конце XIX – начале XX века). Монография. – М.: Компания Спутник+, 2003. – 86 с.
4. Жумаханов Ш., Мирзаахмедов Ҳ. Дарё ҳавзаларида аҳоли жойлашувининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон география жамиятининг ахборотномаси, 36-жилд. –Т., 2010. –Б. 80-83.
5. Исаченко А.Г. Методы прикладных ландшафтных исследований.- Л.: Наука, 1980. – 222с.
6. Исоқов З. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти (Хўжалик-маданий анъаналар: тавсифи ва таҳлили). Т.: Янги нашр, 2011. –144 б.
7. Кашин А.А. Исследование ландшафтной организации территории Удмуртии как фактора хозяйственного освоения и расселения населения. Дисс. ... канд. геог. наук. –Ижевск, 2015. – 184 с. (https://www.dissercat.com)
8. Колбовский Е.Ю. Ландшафтоведение. – М.: Академия, 2006. – 480 с. 6-б.
9. Колуцков В.Н. Ландшафтная концепция в культурной географии. автореф. дисс. на соис. учен. степ. докт. геог. наук. Москва, 2009. с. 50.
10. Солиев А. Ҳудудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Тошкент: Университет, 2007. – 92 б.
11. Солиев А.С. Иқтисодий географик тадқиқотларда табиий географик омиллар ёҳуд географик

синтез ҳақида // Ўзбекистон география жамияти ахбороти? 45-жилд. –Т., 2015. –Б. 3-7.; 5-б.

12. Шарипов Ш. Аҳоли зичлигини ҳисоблашда ландшафт-типологик карталардан фойдаланиш // Ўзбекистон География Жамияти ахбороти, 34-жилд. –Т., 2009. -Б. 166-168.